

Tovush talaffuzida kamchiligi bo'lgan bolalar nutqini logopedik tekshirish metodikasi.

Nutqning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar logopedik o'rganishning majmuaviy tizimi to'rt qismdan iborat:

- ❖ Nutqning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixo-jismoniy va nutqiy rivojlanishini antogenezning dastlabki bosqichida o'rganish metodikasi.
- ❖ Nutqning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni impressiv nutqini o'rganish metodikasi.
- ❖ Nutqning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ekspressiv nutqini o'rganish metodikasi.
- ❖ Bolalar nutqining rivojlanmaganlik darajasini aniqlash.

Nutqning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini majmuaviy logopedik tekshiruv natijalarini taxlil etish o'z navbatida ona tilidagi nutqiy rivojlanmaganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Bolalarning topshiriqlarni bajarishlari o'z navbatida verbal kommunikatsiya, nominatsiya, so'zlarni umumlashtirish, fikrimizdagi bog'lamalarni aytib berish, fonematik analizga taqlid qilish, sintez va fonematik tasavvurlarni bilishni faollashtirishni talab qiladi.

Bolalar tomonidan topshiriqlarning bajarilishi quyidagilardan iborat bo'ladi: ko'rsatish (impressiv nutqni tadqiq etish) va nomlash (ekspressiv nutqni tadqiq etish), rasmlarda izohlash.

Birinchi metodika antogenezning boshlang'ich davridagi maktabgacha yoshdagi bolalarning psixo-jismoniy va nutqiy rivojlanishidagi anamnestik ma'lumotlarni o'rganishga yo'naltirilgan. Ikkinchi metodika impressiv nutqni tadqiq etishga oid 12 ta topshiriqni o'z ichiga oladi. Uchinchi metodika ekspressiv nutqni tadqiq etishga yo'naltirilgan 42 ta topshiriqni o'z ichiga oladi. To'rtinchi metodika yuqorida sanab o'tilgan uchta metodika natijalarini jamlaydi, ya'ni bolalarni impressiv va ekspressiv nutqlarini logopedik tadqiqiga asosan til komponentlari holatini aniqlovchi omillar ro'yhatini tuzib chiqilgan.

Logopedik tekshirish predmetli, mazmunli rasmlar, natural predmetlar, o'yinchoqlar, nutqqa oid va boshqa materiallar asosida o'tkaziladi.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar tasnifi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning rivojlanmaganligini tekshirish va uni bartaraf qilish masalasi katta qiziqish uyg'otib kelmoqda, uni nazariy hamda amaliy yo'nalishlarda chuqurroq o'rganishni talab qilmoqda.

Eshitishi va intellekti normada bo'lgan bolalarda nutqning umumiy rivojlanmaganligi deganda nutq anomaliyasining shunday formasi tushuniladiki, bunda nutqning barcha komponentlari shakllanishi buzilgan bo'ladi nutqning fonetik-fonematik, leksik va grammatik tomoki

Nutqning rivojlanmaganligi uch daraja bilan belgilanadi: nutqiy aloqa vositalarining umuman yo'q bo'lishidan to fonetik-fonematik va leksik-grammatik

jihatdan rivojlanmaganlikdan to mukammal nutqning buzilishigacha.

Nutq rivojlanmaganligining 1-darajasi bu nutqning yo'qligi bilan karakterlanadi. Bunday bolalar nutqsiz bolalardir. 4-6 yoshdagi bunday bolalarning lug'at boyligi kam, noaniq, tushunarsiz bo'ladi. Nutqni tovushga taqdid qilish, tovushlar kompleksi bilan chegaralangan bo'ladi. Narsa va hodisalarni differensiyalanmagan holda ifodalash, so'zlarning ko'p ma'noga ega bo'lishi xarakterli xususiyat hisoblanadi. Bu bolalarning passiv lug'ati aktiv lug'atiga nisbatan ko'proq, boyroq bo'ladi lekin ularda nutqni tushunish pasaygan bo'ladi, ko'p so'zlarning ma'nosini tushunmaydilar.

Tovushlar talaffuzida turg'unlik bo'lmaydi, tovushlar bir-biri bilan almashtiriladi, fonematik o'quv buzilgan bo'ladi. Nutqning umumiy rivojlanganligining bu darajasiga ega bo'lgan bolalar uchun tovushlar taxlili bo'yicha berilgan topshiriqlar tushunarsiz bo'ladi. Nutqni umumiy rivojlanmaganligining II darajasi dastlabki keng qo'llaniladigan odatdagi nutqning bo'lishi bilan karakterlanadi. Bolalar oddiy iboralardan foydalana biladilar, ma'lum lug'at boyligiga ega bo'ladilar. Ular narsalar, hodisalar, alohida belgilar nomini ajrata oladilar. Lekin bunday bolalarda nutqning qo'pol darajada rivojlanmaganligi yaqqol ifodalangan bo'ladi. Ular ikki uch so'zdan iborat gaplardan foydalanadilar. Lug'at boyligi shu yoshga mos keladigan normadan kam bo'ladi. Harakat belgisini bildiruvchi so'zlardan foydalanishda qiyinchiliklar kuzatiladi, predmet nomini, rangini, o'lchamini, shaklini va boshqa belgilarni bilmaydilar. Kelishik shakllarini chalkashtiradilar, fe'l sonini ot soniga moslashtirib olmaydilar.

Nutqning fonetik tomoni shu mos keluvchi normadan orqada qoladi, bo'g'inlar o'rnini almashtiradilar, undoshlar ketma-ket kelganda tovushni qisqartiradilar.

Nutqning umumiy rivojlanmaganligining III darajasida yoyilgan iborali nutqda leksik-grammatik va fonetik-fonematik jihatdan rivojlanmaganlik elementlari kuzatiladi. Bolalar nutqiga ega bo'lgan holda kishilar bilan aloqa bog'lay oladilar, lekin buni ota-ona (tarbiyachi)

ishtirokida ularning muayyan tushuntirishlari yordamida bajara oladilar. Bunday bolalar uchun erkin holda aloqada bo'lish juda qiyin.

Tovushlarni talaffuz qilishda ularni bir-biridan ajrata olmaslik, tovushlar guruhini artikulyatsiya jihatdan osonroq bo'lgan tovushlarga ajratish ba'zi hollarda tovushlarni buzib talaffuz qilish bu bolalar uchun mosdir.

Lug'at ham normadan orqada qolgan bo'ladi, lug'at boyligi taxlilida leksik xatolarning o'ziga xosligi ko'rinadi. Tekshirishda gaplarda so'zlarni oxirigacha gapirmaslik kabi turg'un grammatik xatolar kuzatiladi. Ko'pchilik hollarda qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z ma'nosining o'zgarishini tushunib yetmaslik kuzatiladi.

Bolalar nutq bog'chalariga qabul qilinayotgan 4-6 yoshli bolalar anamnezida quyidagi omillar sabab bo'ladi:

psixik kasalliklar, onadagi alkogolizm, psixik, venerik va og'ir somatik kasalliklar, onaning xomiladorlik paytida kun tartibiga rioya qilmasligi, tug'ishning og'ir

kechishi, kamqonlik, raxit, ichki organlar kasalliklarining asoratlari, umumiy somatik zaiflik, tugʻruqdan keyingi davrda bolalarda boʻlgan genetik kasalliklar.

Bundan tashqari ijtimoiy omillar sabab boʻladi:

pedagogik jihatdan qarovsizligi, notoʻgʻri nutqiy va umumiy tarbiya, yaʼni gipo-giper munosabat.

Psixomotor funksiyalarning shakllanmaganligi yoki ularning rivojlanishida ancha orqada qolishi bolalarda oʻz-oʻziga xizmat qilishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Nozik ixtiyoriy harakatlarni bunyod etuvchi (tugma qadash, oyoq kiyim iplarini bogʻlash, lenta taqish, kiyim kiyish) harakatlar. Bu qiyinchiliklar fazoviy moʻljallashning buzilishi natijasida yanada chuqurlashadi. Bu masalan, oyoq kiyimning oʻng-chap tomonlarini, kiyim qismlarini ajrata olmaslikda va boshqalarda ifodalanadi. Bunday bolalarda fazoviy gnozis va praksis buzilishlari kuzatiladi. Koʻruv-fazoviy moʻljal boʻyicha topshiriqlar bevosita iltimos orqaligina bajarilishi mumkin, oʻlchami, shakli, rangi bilan farq qiladigan predmetlar bilan harakat bajarish qiyinlashadi. 3 yoshli bolalarda nutqning noaniqligi, 5 yoshli bolalarda esa nutqning umumiy rivojlanmaganligining I va II darajasi kuzatiladi. Barcha bolalarda asosiy: sirgʻaluvchi shovqinli, sonor, jarangli-jarangsiz, tish oldi, til orqa tovushlar guruhlarini tovush talaffuzini buzilishi kuzatiladi.

Bolalarda nutqiy va nutqiy boʻlmagan faoliyatga qaratilgan diqqat, fonematik oʻquv, fonematik taxlil, sintez, tasavvurlar rivojlanmagan boʻladi. Soʻzning tovush tuzilmasi qoʻpol buzilgan boʻlib, bola nafaqat murakkab, balki tovush tarkibi jihatdan sodda soʻzlarni ham toʻgʻri talaffuz qila olmaydilar. Bolalarda jumlar tuzish fragmental, agrammatik boʻlib, kelishik qoʻshimchalar, bogʻlovchilar, yordamchi soʻzlarni notoʻgʻri qoʻllash kuzatiladi. Nutqni ayniqsa murakkab grammatik konstruksiyalarini tushunish buzilgan, lugʻat boyligi kam boʻladi. Nutqning va tafakkurning rivojlanmaganligini belgilovchi biologik va ijtimoiy omillarning murakkab qoʻshilishi nutqning toʻla rivojlanmaganligining differensial diagnostikasini qiyinlashtiradi.

Logopedik tekshirish metodikasi

Nutq kamchiligiga ega boʻlgan bolalarni logopedik tekshirishda bir nechta bosqichdan iborat:

Birinchi bosqichda ota-onalar bilan bir maqsadga yoʻnal tirilgan suhbat orqali bola anamnezini yigʻiladi va maxsus kerakli xujjatlarni oʻrganiladi.

Ikkinchi bosqichda, til komponentlarini mufassal logopedik koʻrikdan oʻtkaziladi va bu bosqich oxirida logopedik xulosa asoslab beriladi.

Uchinchi bosqichda esa maxsus-talim va tarbiya sharoitida bolani dinamik kuzatishdan iborat boʻlib, bu bosqich jarayonida nutq taraqqiyotidagi ijobiy oʻzgarishlar kuzatiladi va yetarlicha aniq ifodalanmagan nuqsonlar aniqlanadi.

Bolalarni oʻrganishda quyidagi tamoyillarga rioya qilinadi: rivojlanish, sistemalilik, majmuaviylik, nutq buzilishini bolaning psixik rivojlanishidagi boshqa tomonlari bilan oʻzaro bogʻliq holda qarab chiqilishi, faoliyatli yondoshuv, nutq

kamchiliklarini etiologiya va mexanizmlarini hisobga olish, (etiopatogenetik prinsip) nutqiy va umumiy psixik taraqqiyotning: o‘zaro aloqadorligini hisobga olish va umumdidaktik tamoyilar.

Tekshirish jarayonida logoped suhbat, savol-javob, kuzatish, o‘yin, yangi pedagogik texnologiya, test, baholash, meditsina va pedagogik hujjatlarni o‘rganish, laboratoriya va tabiiy eksperiment kabi metodlardan foydalanadi.

ANAMNEZNI O'RGANISH METODIKASI

Tekshirishning birinchi asosiy bosqichida logoped bola haqidagi anamnestik ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ota-onalar bilan suhbat o'tkazadi.

Bolaning prenatal (tug'ruqqacha), natal (tug'ruq vaqti), postnatal (tug'ruqdan keyingi), davrlardagi taraqqiyotining o'ziga xos tomonlarini aniqlaydi.

Bu quyidagi taxminiy sxema bo'yicha olib boriladi.

Tug'ruqqacha bo'lgan davr

Ona bilan suhbatda logoped ba'zi nasliy omillarni belgilaydi, ota-onalarning bola tug'ilguniga qadar bo'lgan salomatligining ahvoli, ularda asabpsixik, tana-tanosil kasalliklari, nutqiy patologiya bo'lganmi, ota-onadan biri alkogolizm, narkomaniya infeksiyon kasalliklar va boshqa kasalliklar va illatlarga uchraganmi?

Shuningdek, bolaning tug'ruqqacha bo'lgan rivojlanishiga oid quyidagi omillar aniqlanadi: onaning bola tug'ilayotgan vaqtdagi yoshi, onani xomiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmida boshdan kechirgan kasalliklari (qizilcha, gripp, qandli diabet, jigar, buyrak, angina) xomiladorlikning birinchi va shuningdek ikkinchi yarmida qorin yuzasida lat yeyishlar, yurak qon tomir kasalliklari, toksikoz, bolaning tushish xavfi bo'lganligi; xomiladorlik davrida dorili terapiya o'tkazganligi.

Xomiladorlik davridagi patologik omillarni aniqlash logopedga bu omillarni bolaning keyingi nutqiy taraqqiyotiga bilvosita ta'sirini aniqlashga yordam beradi.

Tug'ruq vaqtidagi

Logoped ona bilan bo'lgan suhbatda tug'ruq o'tishning xarakteri va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi: tug'ruq boshlanishning vaqti (o'z vaqtidami), suvning barvaqt ketishi bo'lganmi, tug'ruqning uzoq davom etishi, tug'ruq faoliyatiga yordam beruvchi dorilarni qo'llash, xomilaning qo'l bilan yoki kesser yordamida ajratib olish.

Bu suhbatda bolaning tug'ilgan paytidagi holatini aniqlanishi zarur: darrov kichkirganmi yoki yo'qmi, ko'k, oq, asfiksiyada tug'ilganmi, og'irligi, bo'yi, turli lat yeyish, sinishlar, qon quyilishlari, tug'ruq shishi boshqa jaroxatlar bo'lganligi aniqlanadi.

Tug'ruqdan (postnatal) keyingi davr

Logoped bolaning tug'ilgandan keyingi davrdagi samotik rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni ona bilan olib borilgan suhbatdan oladi va aniqlaydi:

-bolani onaga tug'ilgandan keyin necha soat o'tgach olib kelingan, bola ko'krakni qanday olgan va emgan (faol, faol emas);

-bola uyg'oq vaqtda o'zini qanday tutar edi: tinch yoki betinch, baqiroq, yig'loq va boshqalar;

-hayotning birinchi oyida sepsis, pnevmoniya, dispepsiya, anemiya, gripp, sariq kasalliklari bilan kasallanganmi?

-hayotning birinchi yilida 3 yoshgacha, pnevmoniya, ko'k yo'tal, dispepsiya, dizenteriya va boshqa kasalliklari bilan og'riganmi?

-bolaning tug'ilgandan to 3 yoshgacha motor, sensor, nutqiy rivojlanishlari aniqlanadi.

Bola rivojlanishining tug'ruqdan keyingi davridagi normadan chetga chiqishlari, turli salbiy hodisalar aniqlangach, logoped tomonidan nutqning rivojlanmaganligining yanada to'la o'rganish maqsadida taxlil qilinadi.

BOLALARNING IMPRESSIV NUTQINI TEKSHIRISH METODIKASI

Nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarning impressiv nutqini tekshirish, ularning passiv lug'atini o'rganishga qaratilgan bo'lib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: fonematik tahlil holati, so'zlarni, gaplarni va mustaqil nutqni tushunish holati aniqlanadi.

Nutqni tushunish - murakkab psixologik jarayon bo'lib, u nutq tovushlarini idrok qilish, so'zlar, gaplarning va matnning ma'nosini tushunishni o'z ichiga oladi.

1. Fonematik o'quvni tekshirish.

Fonematik o'quv bolada bevosita nutqiy aloqa asosida shakllanadi.

Bolalarga bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni beramiz: gul-kul, soch-qoch, sim-shim, oz-och, kuz-tuz, bahor-nahor va shu so'zlarga mos keladigan rasmlarni ko'rsatiladi bola ularni aniqlab olishi kerak.

So'zlarni tushunishni tekshirish.

Tekshirish shundan boshlanadiki bolaga u bevosita ko'rmayotgan predmetlarning nomi aytiladi va ularni ko'rsatib berish so'raladi masalan, tana qismlarga: ko'zlar, peshona, yuz, burun, soch, daxan, qo'llar, oyoq va boshqalar.

Keyin bolaga uy predmetlarini, stol, stul, shkaf, qandil, ko'zgu, o'yinchoqlardan: qo'g'irchoq, mashina, koptoklarni ko'rsatish taklif qilinadi.

So'zlarni tushunishni tekshirishning keyingi bosqichi rasmda tasvirlangan predmetlarni tanish ko'nikmasini aniqlashdan iborat bo'ladi. Bunda bolaga turli tematik gruppalariga kiruvchi va bir-biridan shakli, rangi, hajmi, soni jihatidan farq qiluvchi predmetlar tasvirlangan predmetli tasvirlar ko'rsatiladi.

3. Sodda gaplarni tushunishni tekshirish.

Bolaga situativ rasmlar ko'rsatiladi va bir qator quyidagi tipdagi sodda gaplar taklif qilinadi: qiz o'tiribdi, qizda qizil koptok bor, bola yuguryapti, bola turibdi, bolada mashina bor, kuchuk yugurayapti va shu kabi rasmlar bo'lishi mumkin. Shundan so'ng bola aytilayotgan hodisa tasvirlangan rasmni ko'rsatishi lozim. Bundan tashqari quyidagilarni ko'rsatish so'raladi: Olmaxonning momiq dumi, qiz qaerda sakrayapti, yozayapti, sirpanchiq uchayapti va hokazolar.

Keyin bitta gapda kelgan 1-2-3 ta harakatlarni bajarishni o'z ichiga oluvchi so'z shaklidagi buyruqlarni bajarish usulidan foydalaniladi. Masalan, tur stol yoniga bor, uyinchoqni ol va yerga qo'y, koptokni ol, yerga ur va menga ber. So'ng bolaning grammatik strukturalarni tushunishlari aniqlanadi.

1. Birlik va ko'plikdagi otlarni tushunish. Bolaga predmetli rasmlar ko'rsatiladi, uni tanish va ko'rsatish ko'nikmasi aniqlanadi: mashina qaerda, mashinalar qaerda, qo'g'irchoq qaerda, qo'g'irchoqlar qaerda, olma qaerda, olmalar qaerda va boshqalar.

2. Kichraytirish - erkalash suffiksiga ega bo'lgan so'zlarni tushinishi.

Bolaga predmetli rasmlar ko'rsatiladi va quyidagilarni ko'rsatish ko'nikmasi aniqlanadi: stol qaerda, o'yinchoqli stolcha qaerda, qoshiq qaerda, qoshiqcha qaerda, quyon qaerda, quyoncha qaerda va hokazolar.

3 Mustaqil nutq mazmunini tushunish.

Bu bo'limda bolaning mustaqil nutqi, o'z tajribasidan ko'rgan, o'qigan narsalari so'raladi va bola tushunishini imo-ishoralar bilan yoki rasmlar orqali ko'rsata olishi aniqlanadi.

Impressiv nutq bolaning kishilar bilan aloqa bog'lashiga va faoliyatiga ta'sir qiladi. Nutqiy va nutqiy bo'lmagan harakatlarni rejalashtirishning quroli bo'lib maydonga chiqadi.

EKSPRESSIV NUTQNI TEKSHIRISH METODIKASI

1. Bolaning muomala aloqasiga kirishini tekshirish

Bola bilan birinchi uchrashuvda logoped albatta bolaning kontaktga qanday kirishini aniqlaydi: oson, qiyin yoki xayiqib, qo'rqib (negativizm).

Bolaning o'z tengdoshlari bilan qanday nutqiy aloqaga kirishi tekshiriladi: boshqalar bilan oson nutqiy aloqa o'rnatadi, tez-tez yoki kamdan-kam kirishadi, nutqiy aloqaga kirishida tashabbuskor yoki passiv nutqiy aloqaga kirishishda turg'un.

2. Nutqiy bo'lmagan motorikani tekshirish

Logoped bolaga so'z instruksiyasi va taqlidi bo'yicha quyidagi vazifalarni bajarishni taklif qiladi

- vazifa bo'yicha ikkala oyoqda yoki bir oyoqda yugurish, sakrash;
- yurish, yugurish, sakrash signal bo'yicha to'xtash;
- bir oyoqda, so'ng ikkinchi oyoqda sanoq ostida turish;
- logopedga ko'ptokni otish va uni qayta tutib olish;
- qo'llarda bayroqchalarni ushlagan holda qo'llarni quyidagi so'z buyruqlariga amal qilib harakatlantirish: oldinga, orqaga, yuqoriga, pastga;
 - cho'kkalab o'tirgan holda polda ko'ptokni u qo'ldan bu qo'lga yumalatish, so'ngra ko'ptokni ko'tarib, o'rindan turish;
 - yugurish vaqtida ko'ptokni ko'ptokni ilib olish;
 - lentani bantik qilib bog'lash va boshqalar;

Bolaning motorikasini tekshirish natijasida logoped quyidagi ma'lumotlarni oladi: oyoqlar, qo'llar koordinatsiyasi (to'g'ri, noto'g'ri, umuman yo'q); tana muvozanatini sezish, bolaning gavdasini tutish, harakatlarini bajarish darajasi (to'liq, noto'liq);

Bir harakatdan ikkinchi harakatga o'tish (o'z vaqtida, sekinlashgan, yo'q) harakatlarni boshqarish mustaqilligi (to'liq, logoped yordamida);

Chapaqaylik; mimik harakatlar (normada, amimiklik, yuz muskullarining giperkineziyasi, sinkeziyalar, ya'ni asosiy harakatlar bilan birga bajariladigan qo'shimcha harakatlar bir oz yoki yaqqol ifodalangan).

Bolaning motor funksiyasini tekshirish natijalarini quyidagi parametrlar bo'yicha umumlashtiriladi.

Normal motorika:

- harakatlarning statik koordinatsiyasi shakllangan: topshiriq bo'yicha yoki erkin ravishda kerakli holatni aniqlay oladi;
- harakatlarning dinamik koordinatsiyasi shakllangan: harakatlar aniq, ishonch bilan bajariladi, motor aktivligining turli xil ko'rinishlari bilan o'zaro bog'langan(yugurish, sakrash, chapak chalishda);
- qo'l barmoqlari va mayda harakatlari to'la shakllangan: yuz mimikasi ifodali va emotsional (ehtirosli).

Motor (harakat) buzilishlar

Xaddan tashqari yuqori harakat faolligi, qo'zg'aluvchan va koordinatsiyalanmagan harakatlarning bo'lishi;

Motor zo'riqish, harakatlarning cheklanganligi va koordinatsiyalashmagan harakatlar, harakatlarning beso'naqay va passivligi.

3. Artikulyatsion apparatni tekshirish

Artikulyatsion apparatning tekshirishning asosiy maqsadi artikulyatsion organlar tuzilishidagi kamchiliklar, patologiya va harakatchanligini aniqlashdan iborat. Artikulyatsion apparatni tekshirishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

Lablar: (yo'g'on, ingichka, yuqori labning kalta bo'lishi, labdagi yoriqlar);

Til (makroglossiya, tilning ingichka bo'lishi, til tagidagi yuganchani kalta bo'lishi);

Jag'lar: (progeniya, prognatiya);

Tishlar: (yo'q bo'lishi, orasi ochiq bo'lishi, yon ochiq prikuslar);

Qattiq tanglay (baland, past, tor va yoriqlarning bo'lishi);

Yumshoq tanglay: (kalta, ikkiga bo'lingan, yo'q bo'lishi);

So'ngra artikulyatsion apparat organlarining harakatchanligi tekshiriladi. Bunda lab, pastki jag', til, yumshoq tanglay mashqlaridan foydalaniladi.

Masalan, lab mashqlari; kulgi holatiga keltirish-tinch holat; oldinga cho'chchaytirish-tinch holat; kulgi holatiga keltirish, oldinga cho'chchaytirish-tinch holat.

Paski jag' uchun mashqlar: og'izni katta ochish, og'izni ochiq holda 1, 2, 3 sekundgacha ushlab turish-og'izni yopish; katta ochish, pastki jag'ni o'ng va chap tomonga harakatlantirish-tinch holat.

Til mashqlari: tilni keng holatda ko'rsatish-tilni keng holatda pastki lab ustiga qo'yish, og'izni ochish va navbatma-navbat tilni keng va tor holda ko'rsatish; tilni tor holda tutib yuqori labni yalash; shu holda pastki labni yalash, tilni tor holda tutib, uni og'izni chap va o'ng burchaklariga harakatlantirish; og'izni ochish, tilni so'rib qattiq tanglayga tekkizish va kuch bilan tortib olish. Bu mashqlarni bir necha marta qaytarish.

Yumshoq tanglay mashqlari: tilni pastki lab ustiga qo'ygan holda esnash, yo'talish tipidagi mashqlar; "a"-unlisini avval cho'zib, keyin bo'lib-bo'lib talaffuz qilish.

Mashqlar taqlid asosida va so'z yo'riqnomasi bo'yicha bajariladi. Artikulyatsion apparat organlar harakatchanligini tekshirish jarayonida harakatning

bor yo'qligi, harakatning bajarish darajasi (to'liq, noto'liq) va xarakatni bajarish sifati(gipo yoki gipertonus,qo'zg'aluvchanlik); xarakatni aniq bajarish ko'nikmasi; artikulyatsiya organlarini ko'rsatilgan vaziyatda uzoq vaqt ushlab turish; bir harakatdan ikkinchi harakatga oxista o'tish; harakatlar darajasi; surati (normada, sekinlashgan, tezlashgan).

TOVUSHLAR TALAFFUZINI TEKSHIRISH

Tovushlar talaffuzining xolati logopedik amaliyotida qabul qilingan metodika buyicha tekshiriladi.

Bolaga predmetli rasmlar ko'rsatiladi, bunda rasmdagi predmetlarni ifodalovchi so'zlardagi tovush uch pozitsiyada: boshida, o'rtasida, oxirida tekshiriladi.

So'zda undosh tovushlarning mos kelishi:

Sirg'aluvchi tovushlar (s, z, sh, j, ch)

Sonor tovushlar (l, r, ng)

Til orqa,chuqur til orqa tovushlar (v, b, d, m)

Jarangli tovushlar (v, b, d, m)

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar tovush talaffuzini tekshirishda quyidagi jadvalda berilgan so'zlardan foydalaniladi.

Tekshirilayotgan tovushlar	Tekshirilayotgan tovush keladigan holatlar (soʻzning boshida, oʻrtasida, oxirida)	Tekshirilayotgan tovushning koʻp boʻgʻinli soʻzlarda kelishi
s	Soat, xassa, gilos	Somonxona
z	Zina, televizor,	Zira, koʻzoynak
s	Sirk	Sirkul
sh	Sham, shashka, bosh	Shkaf, mashina, shaxanshox, tosh, quyosh
j	Jar, joʻja	Joʻmrak, makkajoʻxori
ch	Choynak, kuchuk, kashnich	Chiroq, chumchuq, qaldirgʻoch
l	Limon, lola, bola, medal	Laylak, doʻlana, gul
r	Rom, arra, karam, dutor	Revolyusiya, karavot
n	Non, nina, in	Novvot, konfet
k	Karam, leyka, koptok	Kapalak, kichkinagina
g	Gaz, gala, dugona	Garmdori, gugurt
x	Xoʻroz, noʻxot, mix	Xikmat, masxaraboz
k	Qalam, beqasam, bayroq	Oqqush
g	Gʻoz, magʻiz, bugʻ	Gʻallakor, chizgʻich, togʻ
x	Havo, hayxot	Xamrox, xamshahar
v	Vodiy, javon, ov	Velosiped
b	Bosh, avtobus	Bedana, belbogʻ, kitob
d	Don, badan, Samarqand	Dorixona, duradgor
m	Mol, amma, sham	Maysazor, sumka, olim
a	Aka, dala, ona	Avtobus, vafl, bolgʻa
o	Oy, bogʻ, xurmo	Olxoʻri, bogʻbon
u	Uy, uka, guldon, bugʻu	Uzumzor, tarvuz
i	In, zina, toʻti	Issiqkoʻl, taksi
e	Etak, etik	
e	Er, chelak	Elpigʻich
yu	Yuz, yurak	Yunusobod
ya	Yashik, soyabon, tuya	
y	Yoʻl, mayiz, oy	Yoʻlbars, maymun, karnay
e	Yoz, piyoz	Yomgʻir, quyosh

Tovushlar talaffuzining holati quyidagicha aniqlanadi:

- mexanizmlar boʻyicha: dislaliya, yengil shakldagi dizartriya;
- shakliga koʻra: motor, sensor, aralash;
- dislaliya yuzaga chiqishiga koʻra:

sigmatizm, rotatsizm, lambdatsizm, yotatsizm, kappatsizm, jaranglatish va yumshatish nuqsonlari.

Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar xususiyatiga koʻra biz quyidagilarni belgiladik:

- tovush yoʻqligi;

- tovushlarning almashtirilishi;
 - tovushlarning nutqda mustahkam emasligi, (ya'ni bunda tovush ba'zi so'zlarda to'g'ri talaffuz etiladi, ba'zida esa boshqa tovushlar bilan almashtirilib yuboriladi);
 - tovushning umuman buzib talaffuz etilishi.
- Barcha tekshirilayotgan tovushlar qatnashgan so'zlarni ifodalovchi maxsus tanlangan predmetli rasmlar tekshirish uchun material bo'lib xizmat qiladi,
- idrok qilinayotgan rasmning tarbiyaviy va ta'limiy xarakteri;
 - rasmda tasvirlangan suratga nisbatan qiziqishni va ijobiy ehtirosli munosabatni uyg'otish;
 - hayotiy vaziyatlarni aks ettirilishi.

V. FONEMATIK TAHLIL, SINTEZ VA FONEMATIK TASAVVURLARNI TEKSHIRISH

Bu funksiyani tekshirish bola uchun nutqning ko'inishini lug'at, fonematik o'quv, grammatik tuzumni rivojlantirish rejasida olib boriladigan logopedik ish uchun zarurdir.

Fonematik tahlilni tekshirish.

Bunda bolalarning quyidagi qobiliyatlarini aniqlash lozim:

- so'z boshidagi tovushni ajratadi, ketidan kelgan tovushni aniqlaydi;
- so'z ichidagi kerakli tovushlarni aniqlaydi;
- juft tovushlarni bir-biridan ajratadi; masalan, b-p,t-d,s-z,t-k.
- tovushning so'zdagi o'rnini aniqlaydi;
- so'zdagi tovushlar sonini aniqlaydi.

Fonematik sintezni tekshirish

Bunda bolalarning quyidagi qobiliyatlarini tekshirib aniqlash zarur:

- ketma-ket berilgan tovushlardan bo'g'inlar, so'zlar tuzish;

Fonematik tasavvurlarni tekshirish

Bunda bolalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

- berilgan tovush va qatnashgan so'zni o'ylab topish;
- nomlari oppozitsion tovushlar bilan boshlanadigan predmetli rasmlarni ikki qatorga taxlash. Masalan, s-sh,ch-s,r-l va boshqalar.
- bir qancha rasmlar orasidan nomlari muayyan tovush bilan boshlanadigan rasmlarni ajratib olish.

VI. LUG'AT BOYLIGINI TEKSHIRISH

Leksikani tekshirish uchun maxsus usullar qo'llaniladi: predmetlarning nomi, harakati, sifati, umumlashtiruvchi so'zlarini nomlash, antonimlar, ranglar, bayram kunlarini topish va hokazolar.

Bolalarga predmetlarni yoki predmet harakatini, predmetning belgilarini nomlash taklif qilinadi. Predmetlar va rasmlar temalar bo'yicha tanlanishi mumkin: o'yinchoqlar, idish-tovoqlar, kiyimlar, odam tanasi qismlari, uy va yovvoyi hayvonlar, o'simliklar, kasb-hunar, yil fasllari va hokazolar.

Bolalarga quyidagi vazifalar beriladi:

- ko'rsatilgan predmetlarni nomlash: «bu nima? bu kim?»

- ko'rsatilgan predmet, rasm bo'yicha ish-harakatni nomlash: «nima qilayapti?»

Masalan, «Bola nima qilayapti?» - bola ish-harakatni nomlab, savolga javob berishi kerak.

- ko'rsatilgan predmetni sifatini aniqlash: «qanday? qanaqa?» Osmon qanaqa? Ranglar qanday?

- sinonim va antonimlarni ajratish:

- predmetlarni bitta umumlashtiruvchi so'z bilan nomlash, Masalan: olma, anor, uzum, bexi, anjir-mevalar.

- bir o'zakli so'zlarni aytib berish (bog', bog'cha, bog'bon)

- otlardan sifat hosil qilish: stol yog'ochdan qilingan qanaqa stol? - yog'ochli stol

VII. NUTQINING GRAMMATIK TOMONINI TEKSHIRISH

Bunda bolalarga quyidagi vazifalarni bajarish taklif qilinadi:

-vaziatli rasmlar bo'yicha gap tuzish; (sodda, murakkab gap)

-birlikdagi otlarni ko'plikdagi otlarga aylantirish:bunda predmetli rasmlardan foydalaniladi(koptok-koptoklar,qalam-qalamlar,kitob-kitoblar va x.k)

- bolaga otning kichraytirish-erkalatish formasini hosil qilish topshiriladi.

Masalan:uy-uycha, stol-stolcha, qo'g'irchoq-qo'g'irchoqcha va h.k.

Bunda asosiy e'tibor gaplarning tuzilishiga qaratiladi

- berilgan andozaga qarab gap tuzish

VIII. MUSTAQIL NUTQNI TEKSHIRISH

Bolaning mustaqil nutqini tekshirishda quyidagi vazifalar beriladi:

-syujetli rasmlar yordamida hikoya tuzish

-ko'rgan narsalarini so'zlab berish

-o'qigan matnini so'zlab berish

-o'z boshidan kechirganlarini so'zlab berish.

IX. NUTQNING PROSODIK KOMPONENTLARINING XOLATI

- daraja: normada, sekinlashgan, tez;

- ritm: normada yoki aritmiya;

- ovoz: normada, bo'g'iq, xrildoq, zaif, past;

- ovoz tembri: yumshoq, qattiq;

- ovoz atakasi: qattiq, yumshoq, yo'q;

- nutqning aniqligi: aniq, ravshan, mujmal;

- nafas: normada, tezlashgan, sekinlashgan;

- nafas olish chuqurligi: normada, yuzaki;

Logoped tekshirish jarayonida bolani faqat kuzatib, u bajargan vazifalarni baholabgina qolmay, balki kerak bo'lganda bolaga yordam berishi lozim. Tekshirish

jarayonida bola faoliyati, uning qiziqishi, muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizlikdan ta'sirlanishi, qiyinchilik xarakteri va uni bartaraf etish usullari, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilash qobiliyatini hisobga olish lozim.

Bolani charchatib qo'ymaslik, shuningdek, bola faoliyatining faollik darajasini pasaytirmaslik uchun tekshirish vaqtida ish turlari o'zgartirib turiladi.

Tekshirish usullari bir qolipda bo'lishi mumkin emas, ular hamma vaqt individual yo'nalishdadir.

To'g'ri tashkil etilgan tekshirish ishlari differensial diagnostika masalalarini hal etishga imkon beradi, shuningdek tuzatish-tarbiyaviy ish metodlarini tugri tanlashda katta ahamiyatga ega.

X. TEKSHIRISH UCHUN MATERIALLAR

Predmet modeli, mulyaj, tarqatma materiallar (rasmlar, konstruktorlar). Zondlar, shpatel, oyna (devor va stol oynasi).

Didaktik materiallar: o'yinchoqlar to'plami, stol ustida o'ynaladigan o'yinchoqlar (loto, domino).

Albomlar yoki rasmlar to'plami, predmetli, iborali, syujetli, davomli, qirqma rasmlar.

Turli kattalikdagi va turli xil sanoq materiallari, mazayka, optik-fazoviy tasavvurlarni aniqlash uchun turli rang va formadagi predmetlar to'plami.

Ovozli o'yinchoqlar to'plami: baraban, nay, pianino, ovoz chiqaradigan hayvon -o'yinchoqlar.

Rasmlar to'plami (o'yinchoqlar): mebel, kiyim, idish-tovoqlar, transportlar, uy va yovvoyi hayvonlar, sabzavotlar, mevalar.

Fonematik idrokni tekshirish uchun maxsus qo'llanmalar: juft predmetli rasmlar, bo'g'inlar, so'zlar.

Nutq kartasi

1. Familiyasi, ismi _____
2. Yoshi (oy, sana, tug‘ilgan yili) _____
3. Uy manzili _____
4. Guruhga qabul qilingan vaqti _____
5. Bolaning qaerdan kelganligi _____
6. Ota-onasining ismi, sharifi
Otasi _____
Kasbi _____
Onasi _____
Kasbi _____
7. Ota-onasining shikoyati _____

8. Anamnez (nechanchi homila bo‘lgan, homiladorlik qanday kechgan, tug‘ilgan zahoti qichqirganmi? Jismoniy rivojlanishi qanday o‘tgan, qachon boshini tutgan, qachon o‘tirgan, turgan va yurgan), bir yoshgacha qanday kasalliklarni boshidan kechirgan? _____

9. Nutq taraqqiyoti: gugulash davri, birinchi so‘z va birinchi jummalarni qachon ayta boshlagan? Lug‘at boyligi qanday rivojlangan? _____
10. Eshitish qobiliyati _____
11. Ko‘rish qobiliyati _____
12. Aqliy faoliyati _____
13. Nutqiy muhit va ijtimoiy sharoitlar. Logopedga murojaat etganmi?

14. Logoped bilan olib borilgan mashg‘ulotlar muddati? Natijasi qanday bo‘lgan?

15. Bolaning nutq kamchiligiga bo‘lgan munosabati _____

16. Nutqiga umumiy tavsifnoma: a) nutqning darajasi va ravonligi

b) ovoz _____
v) nafas _____
17. Artikulyatsion apparatining anatomik tuzilishi va harakatchanligini tekshirish:

a) lablar _____
b) til _____
v) jag‘lar _____

- g) tishlar _____
 d) qattiq tanglay _____
 ye) yumshoq tanglay _____

18. Tovush talaffuzini tekshirish

f	v	p	b	t	d	s	z	u	sh	j	ch	r	l	g	g'	k	q	h	x

19. Fonematik o'quv:

a) tovushlar differentsiatsiyasi

p-b	b-p	t-d	d-t	s-z	z-s	sh-j	j-sh	k-g	g-k	q-g'	g'-q

b) bo'g'inlarni takrorlash

pa-ba	ba-pa	ta-da	da-ta	sa-za	za-sa	sha-ja	ja-sha	ka-ga	ka-ka

v) nutq tovush tarkibining tahlili

So'zlarda birinchi tovushni ajratish:

Anor	tulki	kitob
Olma	bo'ri	chiroq
Ruchka	shahar	soat

So'zlarda oxirgi tovushni ajratish:

Oy	baliq	daftar
Quyosh	qor	uy
Osmon	suv	sigir

Murakkab bo'g'inli so'zlarni talaffuz qilish:

shahanshoh
gultojxo'roz
lolaqizg'aldoq
mustaqilik

20. Umumiy motorika holatini tekshirish:

- a) harakat koordinatsiyasi _____
b) mayda qo'l harakati _____
v) bola qaysi qo'li bilan ko'proq harakat qiladi? _____

21. Bolaning umumiy rivojlanishi: _____

- a) diqqati _____
b) ish qobiliyati _____
v) so'zlashuv suhbatini _____

Sening isming nima? _____

Yoshing nechada? _____

Qaerda yashaysan? _____

Onangning va otangning ismi nima? _____

Otang, onang kim bo'lib ishlaydi? _____

Sening do'stlaring bormi? _____

To'g'ri va teskari sanoq _____

Hisoblash operatsiyasi _____

Geometrik shakllarni nomlash va ajratish _____

Ranglar _____

22. Predmetlarning klassifikatsiyasi:

- a) to'rtinchisi ortiqcha _____

b) vaqt va fazoni aniqlash _____

v) logik tafakkur qobiliyati _____

23. Nutqning tushunish qobiliyatini tekshirish:


- a) sodda va murakkab so'z yo'riqnomalarini bajarish _____


b) kelishik qo'shimchalari, ko'plik qo'shimchalarini tushunishi _____

24. Lug'at boyligi:

- a) predmetlarni nomlash _____

b) predmet qismlarini nomlash va ko'rsatish

Чойнак  ҚОПҚОҒИ
жўмраги
тутқичи



25. Umumlashtirish darajasi:

olma, anor, shaftoli, uzum, behi, olxo‘ri –
 sabzi, piyoz, kartoshka, lavlagi, sholg‘om –
 sigir, qo‘y, kuchuk, mushuk, buzoq –
 bo‘ri, tulki, ayiq, sher, yo‘lbars –
 avtobus, tramvay, trolleybus, samolyot –

26. Predmet belgisini bildiruvchi so‘zlar:

qizil olma-qanday olma?

Katta koptok - qanday koptok?

27. So‘z boyligida fe’llarning ishlatilishi:

a)

ошпаз
 ўқитувчи
 шофёр

Нима қиляпти?

b) nima qanday ovoz chiqaradi?

mushuk-miyovlaydi

it-

g‘oz-

tovuq-

sigir-

sichqon-

28. Nutqning grammatik tomonini tekshirish;

Bunda bolalarga quyidagi vazifalarni bajarish taklif qilinadi:

- vaziatli rasmlar bo‘yicha gap tuzish; (sodda, murakkab gap)

- birlikdagi otlarni ko‘plikdagi otlarga aylantirish: bunda predmetli rasmlardan foydalaniladi (koptok-koptoklar, qalam-qalamlar, kitob-kitoblar va h.k)

- bolaga otning kichraytirish-erkalatish formasini hosil qilish topshiriladi.

Masalan: uy-uycha, stol-stolcha, qo‘g‘irchoq-qo‘g‘irchoqcha va h.k.

Bunda asosiy e‘tibor gaplarning tuzilishiga qaratiladi

- berilgan andozaga qarab gap tuzish

29. Mustaqil nutqni tekshirish:

a) rasmga qarab hikoya tuzish;

b) seriyali rasmlarga qarab hikoya tuzish;

v) eslab qolganlarini hikoya qilish;

g) tasavvuri bo‘yicha hikoya qilish;

d) ko‘rgan voqealarni hikoya qilib berish.

30. Logopedik xulosasi:

Variantlar: bolalarda nutqning to‘la rivojlanmaganligi (3 darajasi), uning motor alaliya bilan birgalikda kelishi;

Bolalarda nutqning to‘la rivojlanmaganligi (2 darajasi), uning dizartriya bilan birgalikda kelishi.

Mundarija

Kirish.

- 1. Nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar tasnifi**
- 2. Logopedik tekshirish metodikasi**
 - 2.1. Anamnezni o‘rganish metodikasi**
 - 2.1.1. Tug‘ruqqacha bo‘lgan davr**
 - 2.1.2. Tug‘ruq vaqtidagi**
 - 2.1.3. Tug‘ruqdan (postnatal) keyingi davr**
- 3. Bolalarning impressiv nutqini tekshirish metodikasi**
 - 3.1. Fonematik o‘quvni tekshirish**
 - 3.2. So‘zlarni tushunishni tekshirish**
 - 3.3. Sodda gaplarni tushunishni tekshirish**
- 4. Ekspressiv nutqni tekshirish metodikasi**
 - 4.1. Bolaning muomala aloqasiga kirishini tekshirish**
- 5. Nutqiy bo‘lmagan motorikani tekshirish**
 - 5.1. Motor (harakat) buzilishlar**
 - 5.2. Artikulyatsion apparatni tekshirish**
- 6. Tovushlar talaffuzini tekshirish**
 - 6.1. Fonematik tahlil, sintez va fonematik tasavvurlarni tekshirish**
 - 6.2. Fonematik tasavvurlarni tekshirish**
- 7. Lug‘at boyligini tekshirish**
- 8. Nutqining grammatik tomonini tekshirish**
- 9. Mustaqil nutqni tekshirish**
- 10. Nutqning prosodik komponentlarining xolati**
- 11. Tekshirish uchun materiallar**
- 12. Nutq kartasi**